

YURIDIK SHAXSLAR UCHUN ELEKTR ENERGIYA TA'MINOTI SHARTNOMASI

Dehqonobod tumani

3 - son

2022 yil 24 " 01

Dehqonobod tuman elektr tarmoqlari korxonasi, keyingi o'rinlarda "Korxonasi" (energiya bilan ta'minlovchi tashkilot nomi) deb yuritiladi) ning nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari X. Xudoyberdiyev bir tarafdin va (energiya ta'minoti tashkiloti rahbarining F.I.Sh.) Dehqonobod tuman tibbiyot birlashmasi (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" (Energiya iste'molchisining nomi) deb yuritiladi) ning nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari Sh. Amirov ikkinchi tarafdin ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1 Ushbu shartnoma bilan Korxonasi tutashtirilgan tarmoq orqali Iste'molchiga elektr energiyasi (keyingi o'rinlarda "Energiya" deb yuritiladi) berib turish majburiyatini, Iste'molchi esa qabul qilingan Energiya haqini to'lash majburiyatini oladi.

1.2 Ulangan quvvati 750kVA va undan katta bo'lgan sanoat va ularga tenglashtirilgan Iste'molchilar olingan Energiyadan tashqari, yana talab etilgan har bir kVt yoki yagona elektr energiyasi tizimining yuklamali soatlarida qatnashuvchi haqiqiy maksimal quvvat (keyinchalik "Quvvat") uchun haq to'laydi.

II. ENERGIYA MIQDORI

2.1 Energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi 1200 kVt.s. ni tashkil qiladi.

2.2 Shartnoma tuzilgan kunida yetkazib beriladigan Energiyaning umumiy narxi 450 so'mni, Quvvatning narxi 540.000 so'mni (amalda bo'lgan tarif asosida) tashkil qiladi.

No	Tovar (Mahsulot) nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Bahosi
1	Elektr energiya	Kvt/s	<u>1200</u>	<u>450</u>	<u>540.000</u>

2.3 Korxonasi Iste'molchiga Energiyani (Quvvatni) ushbu shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatilgan miqdorda yetkazib beradi.

2.4 Korxonasi tomonidan Iste'molchiga yetkazib berilgan Energiya (Quvvat) miqdori Energiyani (Quvvatni) hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi (2-ilova). Hisobga olish priborlari, shuningdek Korxonasi bilan Iste'molchilarning hisob-kitob qilishiga mo'ljallangan Energiya va Quvvatni hisobga olishning boshqa vositalari Korxonasi Energiya iste'molini avtomatlashtirilgan hisobga olish va nazorat qilish tizimi bilan mos kelishi, Iste'molchining hisobidan sotib olinishi, davlat qiyoslovidan o'tishi va o'rnatilishi, bundan keyin esa Korxonasi vakili tomonidan ro'yxatga olinishi va tamg'alanishi kerak.

2.5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-dekabrda 277-sonli qarorining 1-ilovasidagi Tabiiy monopoliyalari subyektlari tomonidan majburiy xizmat ko'rsatilishi kerak bo'lgan Iste'molchilar uchun Energiya ta'minotining yillik minimal hajmi 1200 kVt.s.ni tashkil qiladi.

III. HISOB-KITOB TARTIBI

3.1 Yetkazib berilgan Energiya va Quvvat uchun hisob-kitob davri bir oy.

3.2 Korxonasi va Iste'molchi o'rtasida hisob-kitob qilish uchun aktiv va reaktiv energiya, shuningdek Quvvatning hisobga olinishi elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasida amalga oshiriladi (3-ilova) Agar Energiyani (Quvvatni) hisobga olish pribori balans bo'yicha mansublik chegarasida o'rnatilmaganda, elektr tarmog'ining chegarasidan hisobga olish pribori o'rnatilgan joyigacha bo'lgan uchastkadagi Energiyaning texnologik sarfining hajmi Iste'molchi bilan birgalikda hisoblash yo'li bilan dalolatnoma tuzilgan holda 107 (4-ilova) aniqlanadi va haq to'lashda ushbu elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansubligiga qarab, Korxonasi va Iste'molchi hisobiga o'tkaziladi.

3.3 Korxonasi Iste'molchi bilan birgalikda har oyda energiya va quvvatning haqiqiy sarfini aniqlash uchun hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini yozib oladi.

3.4 Iste'molchi kelgusi hisob-kitob davriga u boshlanishidan oldin Energiya va Quvvatning shartnomaviy hajmi narxini 100 foizi miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirishi shart. Iste'molchi hisob-kitob davrida haqiqiy iste'mol qilgan Energiya va Quvvat uchun shartnoma shartlaridan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladi va to'liq to'lovlarni navbatdagi oy boshlangunga qadar amalga oshiradi. Iste'mol qilingan Energiya va Quvvat uchun Iste'molchining qarzdorligi, shartnomada belgilangan miqdordan ko'p iste'mol qilinganligi uchun jarima va penya mavjud bo'lsa, oldindan to'lov sifatida o'tkazilgan mablag'lari qarzdorlikni tugatishga yo'naltiriladi va oldindan to'lov sifatida hisobga olinmaydi.

3.5 Korxonasi har oying 25 sanasigacha Iste'molchi bilan birgalikda hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini yozib olish bilan bir vaqtda, hisoblagichlarning tartib raqamlarini hamda amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda hisobotni rasmiylashtiradi (5-ilova). Hisobot asosida Korxonasi tegishli hisob-kitobni amalga oshiradi (6-ilova) va Iste'molchi hisob-fakturani oladi. Iste'molchida turli tarif guruhlariga tegishli bo'lgan bir nechta obyekt mavjud bo'lgan taqdirda hisob-kitoblar har bir obyekt bo'yicha ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura yoziladi. Hisob-kitob asosida amalga oshirilgan to'lovlarni hisobga olganda Iste'molchining qarzdorligi aniqlansa, Korxonasi xizmat ko'rsatuvchi bank orqali to'lovni amalga oshirishi uchun aksept bilan to'lov talabnomasi beradi.

3.6 Iste'molchi tomonidan Energiya (Quvvat) iste'moli haqida hisobot taqdim etilmasa yoki hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari yozib olinmasa, Korxonasi tomonidan hisob-kitoblar iste'molning shartnomaviy miqdori bo'yicha, keyinchalik Iste'molchi bilan birga aniqlangan haqiqiy iste'mol qilingan 108 Energiya uchun qayta hisob-kitob qilgan holda, amalga oshiriladi. Bunda, Korxonasi xizmat ko'rsatuvchi bankka belgilangan tartibda to'lov talabnomasi va hisob-fakturani taqdim etadi.

3.7 Aktiv va reaktiv Energiya (Quvvat) uchun hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-noyabrda 511-sonli qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasi iste'molchilari va energiya bilan ta'minlovchi tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar tartibi to'g'risidagi Nizomga hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Elektr energiya

tariflariga muvofiq amalga oshiriladi. Iste'molchilarni tegishli tarif guruhiga mansubligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 10-avgustda 955-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Elektr va issiqlik energiyasi iste'molchilarining tarif guruhlari to'g'risida nizomga muvofiq belgilanadi.

3.8 Tariflar o'zgariganida Iste'molchi yetkazib berilayotgan Energiya va Quvvat uchun yangi tarif kiritilgan kundan boshlab yangi tarif bo'yicha haq to'lashi kerak. Bunda, Iste'molchi tarif oshgan vaziyatda to'lov kundan boshlab keyingi 12 oydan oshmagan muddatga oldindan to'langan Energiya miqdoriga qo'shimcha haq to'lashdan ozod etiladi.

3.9 Energiya (Quvvat) uchun Korxonaga va Iste'molchi o'rtasidagi hisob-kitoblar Iste'molchi tomonidan Korxonaning hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. 3.10 Agar Iste'molchi Energiyaning bir qismini subiste'molchiga bir stavkali tarif bo'yicha yetkazib bersa, u Korxonaga ushbu subiste'molchilarning energetika tizimining eng katta yuklamasida qatnashuvchi yuklamasi qiymatiga kamaytirilgan Quvvat miqdori uchun haq to'laydi. 3.11 Reaktiv Energiya (Quvvat)ni o'rni to'ldirish uchun chegirmalar (ustamalar) bitta hisobga olish nuqtasi bo'yicha o'rtacha oylik Energiyasi iste'moli 15 ming kVt.soatdan ortiq bo'lgan sanoat iste'molchilari va ularga tenglashtirilgan iste'molchilar, elektrlashtirilgan (elektr energiyasi bilan yuradigan) temir yo'l, shahar transporti, qishloq xo'jaligi iste'molchilariga nisbatan amalga oshiriladi.

109 3.12 Korxonaga va Iste'molchi har oyda navbatdagi hisob-kitob davri boshlanishi holatiga o'zaro solishtiruv dalolatnomasini tuzadi. Iste'molchi foydalanilgan energiya uchun o'zaro hisob-kitoblar solishtiruv dalolatnomasini imzolashdan bosh tortsa, qarzni undirish shartnomaviy hajmdan kelib chiqqan holda Iste'molchining bankdagi hisob raqamiga to'lov talabnomasini topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.13 Energiya (Quvvat) iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning Avtomatlashtirilgan tizimiga ulangan Iste'molchilarga Energiya (Quvvat) yetkazib berish oldindan to'langan haq doirasida amalga oshiriladi.

3.14 Iste'molchining aybi bilan Energiya ushbu shartnomada talab etilgan hajmdan kam iste'mol qilinsa, oldindan to'langan mablag'lar qaytarilmaydi va keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

3.15 Hisobga olish pribori Iste'molchining aybi bilan buzilgan (plombasi buzilgan, oynasi singan va shu kabilar) hisobga olish priborini ishga tushirish sxemasi o'zgarigan, hisobga olish priboridan tashqari elektr qabul qilgichlar ulangan yoki Energiya boshqacha usulda o'g'irlangan hollarda, birgalikda ikki tomonlama dalolatnoma rasmiylashtiriladi va shu asosda Korxonaga Iste'molchini elektr tarmog'idan uzib qo'yish huquqiga ega. Dalolatnoma asosida hisobga olish priborlari oxirgi marta o'zgartirilgan yoki ularni ulash sxemasi tekshirilgan kundan boshlab butun o'tgan, ammo da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan, davr uchun elektr qabul qilgichlarning ulangan quvvati va Iste'molchining 4-ilovada ko'rsatilgan ishlash soatlari bo'yicha Energiya sarfi qayta hisoblab chiqilishi shart. Korxonaga 3 ish kuni mobaynida Iste'molchiga to'lash uchun qo'shimcha to'lov xujjati yozib beradi, shuningdek xizmat ko'rsatuvchi bankka to'lov xujjatlarini taqdim qiladi. Iste'molchi qo'shimcha to'lov xujjati bo'yicha to'lovni 10 kun muddatda amalga oshirmasa, Korxonaga ko'rsatilgan summani majburiy tartibda qonun asosida undirish choralarini ko'radi. Hisobga olish pribori ko'rsatkichini yozib olish ulash sxemasini tekshirish deb hisoblanmaydi.

IV. ENERGIYANI CHEKLASH VA YETKAZIB BERILISHINI TO'XTATISH TARTIBI

4.1 Iste'molchi tomonidan Korxonaga bilan birgalikda, Energiyani cheklash va uzib qo'yish jadvallari yagona elektr energetikasi tizimida Energiya va Quvvat tanqisligi hollarida yagona elektr energetikasi tizimining barqaror parallel ishlashini ta'minlash, avariyalar yuzaga kelishining oldini olish hamda iste'molchilarning tartibsiz uzib qo'yilishini bartaraf etish uchun cheklash va uzib qo'yish jadvallari ishlab chiqiladi. Uzib qo'yish jadvallari Iste'molchi tomonidan Korxonaga vakillaridan uzib qo'yish jadvallari joriy etilishi to'g'risidagi bildirishnoma olingandan keyin darhol amalga kiritiladi. Ushbu bildirishnoma Iste'molchi tomonidan bajarilmaganda, Korxonaga Iste'molchini ogohlantirgandan keyin Energiya va Quvvat iste'molining belgilangan darajada kamayishini ta'minlovchi miqdorda Energiya bo'yicha majburiy ravishda cheklaydi.

4.2 Elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlaridagi avariylarning oldini olish va bartaraf etish yoki odamlarning xavfsizligini ta'minlash ishlari bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan choratadbirlarni ko'rish zarur bo'lganda, Iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan, biroq uni darhol xabardor qilgan holda, Energiya uzatishda uzib qo'yish yoki cheklashlarga ruxsat etiladi.

4.3 Quyidagi hollarda Korxonaga Iste'molchiga Energiyaning yetkazib berilishini to'xtatish va uzib qo'yish oqibatlari uchun javob bermaslik huquqiga ega:

- Energiya (Quvvat) shartnomaviy miqdordan ko'p sarflanganida yoki Energiya (Quvvat) iste'molining belgilangan rejimi buzilganda;
- elektr ta'minoti shartnomasini tuzmasdan Energiya iste'mol qilinganda;
- "O'zstandart" agentligi tomonidan qiyoslashdan o'tkazilgan Energiyani hisobga olish priborlari bo'lmaganda;
- Energiya (Quvvat) uchun shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to'lov to'lanmaganda;
- Korxonaga tarmoqlariga elektr qabul qilgichlar o'zboshimchalik bilan ulanganda yoki Quvvat shartnomada belgilangan miqdordan oshirib yuborilganda;

111 ye) elektr qabul qilgichlar hisobga olish priborlaridan tashqari ulanganda yoki Energiyani hisobga olish sxemasi buzilganda, shu jumladan hisobga olish priborlarining va o'lchash transformatorlarining plombalari buzilganda;

j) Korxonaga vakili hisobga olish priborlarini ko'rishga qo'yilmaganda.

4.4 Elektr manbaidan uzib qo'yilishi texnogen va avariya oqibatlariga olib keladigan, o'ta xavfli va uzluksiz texnologik jarayonli (maxsus tartibda Energiya yetkazib beriladigan korxonalar ro'yxatiga kiritilganlar) sanoat korxonalarida qarzdorlik paydo bo'lgan taqdirda haq to'lanmaganligi uchun Energiya yetkazib berishni cheklash, belgilangan tartibda, elektr ta'minotining texnologik va avariya bronigacha, to'liq uzib qo'yish esa – faqat sud qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

4.5 Barcha yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaziyatlarda yagona elektr energetika tizimi elektr tarmoqlariga qayta ulash va Energiya yetkazib berilishini tiklash ishlari Iste'molchi tomonidan shu bilan bog'liq xarajatlar qoplanganidan keyin navbat bilan amalga oshiriladi.

V. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1 Iste'molchining huquqlari:

- Korxonaga tomonidan shartnomaviy majburiyatlarning shartnomada belgilangan tartibda va lozim darajada bajarilishini talab qilish;
- Energiyani elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasiga shartnomada ko'rsatilgan miqdorda yetkazib berishni talab qilish;

v) elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasida Energiyaning sifat ko'rsatkichlarini davlat standartlarida belgilangan darajada saqlashni talab qilish;

g) Korxonaning elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlarini rejali ta'mirlanishi tufayli Energiya bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uzilishlar to'g'risida uzib qo'yishgacha kamida 3 sutka oldin ogohlantirishni talab qilish;

d) Energiyaning tegishli miqdori uchun oldindan to'lov amalga oshirilgan taqdirda Energiyaning shartnomaviy miqdorini o'zgartirishni talab qilish;

112 ye) Oldindan haq to'langanligidan qat'iy nazar Energiyaning shartnomaviy hajmini kamaytirish tomoniga o'zgartirishni talab qilish. Bunday talabnomalar nazarda tutilayotgan o'zgartirishlardan (joriy oy tugashidan) 10 kundan kechikmay berilishi lozim.

5.2 Iste'molchining majburiyatlari:

a) shartnomaviy majburiyatlarini shartnomada belgilangan tartibda va lozim darajada bajarish;

b) kelgusi hisob-kitob oyi uchun Energiya (Quvvat) hajmiga shartnomada belgilangan muddatda haq to'lash;

v) Elektr qurilmalarini zarur texnik holatini va Iste'molchilarning elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda Xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya kilinishi hamda Energiyadan oqilona foydalanilishini ta'minlash;

g) 7-ilovaga muvofiq kompensatsiya qurilmalari ish rejimiga (reaktiv energiya va quvvat iste'moli) rioya qilish;

d) energetika tizimining eng katta yuklamali soatlarida talab etilgan Quvvatdan oshmaslik. Iste'molchi Korxonaning talabiga ko'ra quyidagilarni hisobga olishi va xabar qilishi shart: - iste'mol qilinayotgan Energiyaning (Quvvatning) sutkalik, oylik sarflari va haqiqiy miqdorini; - yagona elektr energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamali davrida reaktiv energiyaning (quvvatning) har sutkali sarfi; - yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamasining o'tish davrida Energiyaning (Quvvatning) har 30 daqiqadagi sarfi.

5.3 Korxonada quyidagi huquqlarga ega:

a) shartnomada belgilangan tartibda va kerakli hajmda shartnoma majburiyatlari bajarilishini talab qilish;

b) hisob-kitob davrining har qaysi kuniga o'zaro hisobkitoblar solishtiruv dalolatnomasini tuzish.

5.4 Korxonaning majburiyatlari:

a) shartnomaviy majburiyatlarini shartnomada belgilangan tartibda va lozim darajada bajarish;

b) Energiyani shartnomada belgilangan hajmda elektr tarmoqlarining balans mansubligi chegarasigacha uzluksiz yetkazib berish;

113 v) Iste'molchilarga Energiyani yetkazib berishning to'xtatib turilishi va buning sabablari to'g'risida ma'lum qilish;

g) joriy etiladigan cheklashlar haqida, cheklashning hajmi va vaqtini ko'rsatgan holda, o'z vaqtida xabar qilish;

d) Iste'molchilarning Energiya kerakli miqdorda yetkazib berilmaganligi yoki elektr ta'minotidagi boshqa buzilishlar haqidagi arizalarini olingan kundan boshlab o'n kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqish, ularni bartaraf etish va batafsil javob yuborish;

ye) Iste'molchining belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq 5 kun muddatda oylik shartnomaviy miqdorga o'zgartirishlar kiritish, Energiyaning oylik shartnomaviy miqdorini ko'paytirish (kamaytirish), imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa bu to'g'risida Iste'molchiga rad etishning sababini ko'rsatgan holda yozma shaklda xabar qilish.

VI. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI VA FORS-MAJOR

6.1 Shartnomani bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida yetkazilgan haqiqiy zarar aybdor taraf tomonidan ikkinchi tarafga to'lanishi shart.

6.2 Energiyani yetkazib berish muddatlari o'tkazib yuborilsa yoki Energiya shartnoma miqdorining 5 foizidan ortiq miqdorda yetkazib berilmasa, Korxonada har bir muddati o'tkazib yuborilgan kun uchun Iste'molchiga bajarilmagan majburiyatlari summasining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, lekin penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan Energiya narxining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penya to'lanishi Korxonani shartnoma shartlarini kerakli hajmda bajarishdan va yetkazib berish muddatining uzaytirilishi yoki Energiyaning kerakli hajmda yetkazib berilmasligi natijasida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

6.3 Yetkazib berilgan Energiya uchun o'z vaqtida haq to'lamasa, Iste'molchi Korxonaga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lov summasining 0,1 foizi (Energiya maxsus tartibda yetkazib beriluvchi korxonalar uchun 0,2 foiz) miqdorida penya to'laydi. Bunda, penyaning umumiy 114 summasi muddati o'tkazib yuborilgan summaning 50 foizidan oshmasligi kerak. Penya hisob-kitob davridan keyingi oying tugagandanidan keyin boshlab hisoblanadi.

6.4 Iste'molchi hisobot davrida shartnomada ko'rsatilgan miqdorga nisbatan 5 foizdan ortiq Energiya iste'mol qilganda, hisob-kitob davri uchun shartnomada ko'rsatilgandan ortiq iste'mol qilingan jami hajm uchun belgilangan tarifning 50 foizi miqdorida Korxonada foydasiga jarima to'laydi (6.5-bandda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno).

6.5 Ushbu shartnomada belgilangan Energiyaning tegishli hajmi uchun oldindan to'lovni amalga oshirish sharti bilan Iste'molchining taklifi bo'yicha hisob-kitob davri tugashidan 10 kun oldindan kechiktirmasdan Energiyaning shartnomaviy hajmlariga kiritilgan o'zgartirishlar shartnomada belgilangan hajmdan ko'p iste'molga kirmaydi.

6.6 Korxonada: a) Iste'molchi Energiya iste'molining belgilangan rejimiga rioya qilmay, Energiya iste'moli yoki Quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qo'ygan, Korxonasi tomonidan belgilangan Energiya iste'molini cheklash jadvalini bajarmagan sutkalarda past sifatli Energiya yetkazib berilganligi uchun;

b) zaxira manbaini avtomatik ulash, avtomatik qayta ulash va avtomatik davr-tezlikli o'chirishlarning ishlash vaqtida Energiyani yetkazib berishdagi tanaffuslar uchun Iste'molchi oldida moddiy javobgar bo'lmaydi.

6.7 Iste'molchining yagona elektr energetika tizimining eng katta kuchlanishli soatlarida amaldagi yuklamasi shartnomada nazarda tutilgan ko'rsatkichdan 5 foizdan ortiq bo'lgan taqdirda, hisob-kitob davrining oxirida amaldagi yuklamaning ortiqcha butun qismi uchun qayta hisob-kitob qilinadi va belgilangan tarifning 50 foizi miqdorida qo'shimcha haq undiriladi. Qo'shimcha Quvvatga haq to'lanishi kelgusida har bir aniq vaziyat uchun Korxonadan tegishli ruxsat olmasdan ushbu shartnomada talab etilganidan ortiq Quvvatdan foydalanish huquqini bermaydi.

6.8 Taraflar shartnomani fors-major holatlari, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) tufayli bajarmagan yoki 115 lozim darajada bajarmaganligini isbotlansa, javobgar bo'lmaydilar.

VII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

VII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

- 7.1 Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kirgan hisoblanadi.
- 7.2 Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 7.3 Shartnoma bir yil muddatga tuziladi. Shartnomaning amal qilish muddati tugagach, taraflardan biri uni bekor qilish yoki o'zgartirish haqida ariza bermasa, u shartnomada nazarda tutilgan muddatga va shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi. Bunday ariza shartnoma amal qilish muddatining oxirgi oyi mobaynida taqdim qilinishi lozim. Shartnoma yangi muddatga uzaytirilganida uning shartlari taraflar kelishuviga binoan o'zgartirilishi mumkin.
- 7.4 Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga faqat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.
- 7.5 Mazkur shartnoma bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2009yil 22-avgustdagi 245-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari" va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.
- 7.6. Ushbu shartnoma yuzasidan yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi. Taraflar o'rtasida nizolar o'zaro hal qilinmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

9. TOMONLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI:

«Ta'minlovchi»

Dehqonobod tuman Elektr ta'minoti korxonasi
Manzili Qarashina q'o'rg'oni

tel/faks 75 612-12-53

x'lr 22636000300177786346

Bank nomi O'zsanoatqurilish bank Qarshi shahar filiali
MFO; 00854

OKED

Rahbar:



«Iste'molchi»

Dehqonobod tuman tibbiyot birlashmasi

Manzili Qarashina Guliston 5

tel/faks 75-612-13-86 75-612-16-48

sh'lvv 600023860102127072120059008

СТИР 201582251 ОКЭД 91511

Узб. Респ. Молия Вазирлиги Газначилиги Газна
Х/р 23402000300100001010 Банк номи Тошкент
шахар Марказий банк ХККМ МФО 00014

ОКЭД 86100 Газначилик булинмаси

СТИРи 201122919

Рахбар



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RSIDA HUQUQIY
XULOSA**

1. Loyihaning turi. Etkazib berish shartnomasi.
2. Loyihaning nomi:
O'zbekiston Respublikasi Fugarolik Kodeksi 468-478-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qaroriga asosan.

Dehqonobod tuman elektr tarmoqlari korxonasi, keyingi o'rinlarda "Korxona" (energiya bilan ta'minlovchi tashkilot nomi) deb yuritiladi) ning nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari X. Xudoyberdiyev bir tarafdan va Dehqonobod tuman tibbiyot birlashmasi (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" (Energiya iste'molchisining nomi) deb yuritiladi) ning nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari Sh. Amirov o'rtasida 540 000 (besh yuz qirq ming) so'mlik elektr energiyasi etkazib berish shartnomasi to'g'risida.

3. Loyihani ishlab chiquvchi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Dehqonobod tuman tibbiyot birlashmasi bosh xisobchisi H.Adirov 2022-yil 22-yanvar.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Dehqonobod tuman yuridik
xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuristkonsul'i**

D.CH.Xusanov

24.01.2022-yil

